



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 30-oktabr

607-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini 2024-2025-yillarda amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 13-martdagi 128-sonli, shu haqdagi viloyat hokimining 2024-yil 22-oktabrdagi 496-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasining Innovatsion rivojlanish strategiyasini 2024-2025-yillarda amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 13-martdagi 128-sonli, shu haqdagi viloyat hokimining 2024-yil 22-oktabrdagi 496-6-0-Q/24-sonli qarorlarini tumanda ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga muvofiq,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasining Innovatsion rivojlanish strategiyasini 2024-2025-yillarda amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 13-martdagi 128-sonli, shu haqdagi viloyat hokimining 2024-yil 22-oktabrdagi 496-6-0-Q/24-sonli qarorlari asos va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.

2. Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PQ–307-son qarorining 2-bandida 2022 – 2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasida erishilgan natijalar va maqsadli ko‘rsatkichlar hamda tegishli davr uchun iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlaridan kelib chiqib, mazkur Strategiyani amalga oshirish yuzasidan kelgusi ikki yilga mo‘ljallangan “Yo‘l xaritasi”ni tasdiqlash belgilanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinganligi;

quyidagilarni nazarda tutuvchi O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini 2024-2025-yillarda amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” (keyingi o‘rinlarda – “Yo‘l xaritasi”) ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

innovatsion infratuzilma subyektlari tarmog‘ini shakllantirish orqali startap tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash hamda yirik hajmli ishlab chiqarishni tashkil etishi;

innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish orqali innovatsion faol tashkilotlar ulushini oshirishi;

kichik tadbirkorlikning innovatsion faolligini oshirish orqali hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy jadal rivojlantirishni ta‘minlashi;

yangi turdagi mahsulotlar va innovatsion texnologiyalarni yaratishning g'oyadan yakuniy iste'molchigacha bo'lgan kompleks tizimini ta'minlash orqali innovatsiyalarga bo'lgan talabni rag'batlantirishi;

yaratilgan kapitalni "tubdan yangilovchi" innovatsiyalarga qayta yo'naltirish tizimini shakllantirishi;

ta'limning barcha bosqichlarida yaratuvchanlik, innovatsion tadbirkorlik va ratsionalizatorlik ko'nikmalarini rivojlantirish orqali innovatsion faoliyat boshqaruvida inson kapitalini yanada rivojlantirishi;

belgilanishicha, vazirliklar va idoralar rahbarlari "Yo'l xaritasi"da belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda shaxsan mas'ul hisoblanishi;

Vazirliklar va idoralar "Yo'l xaritasi"da belgilangan vazifalar ijrosi bo'yicha har chorak yakunida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga ma'lumot kiritib borishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari J.Raximov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov